

## **“Ipoteka-bank” ATB Kuzatuv kengashi a’zosini saylash.**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 65-moddasiga muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi aksiyadorlik jamiyatining kamida besh foiz ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorning yozma arizasi asosida o‘tkaziladi.

Mazkur Qonunga asosan bankning asosiy aksiyadori hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 28.03.2023 yildagi 03/29-40/365-sonli xati bilan janob Zoltan Szalai “Ipoteka-bank” ATB Kuzatuv kengashining mustaqil a’ziligiga kiritildi.

“Ipoteka-bank” ATB Ustavining 11.49-bandiga muvofiq, Bank Kuzatuv kengashi a’zolarining soni to‘qqiz kishidan iborat bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, uning tarkibiga saylangan a’zolarining kamida besh nafari xalqaro bank sohasida tajribaga ega bo‘lgan mustaqil a’zo maqomiga ega bo‘lishi kerak. Hozirda Kuzatuv kengashida bitta bo‘sh o‘rin mavjudligini hisobga olib, ushbu nomzodni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan nomzodning ma’lumoti, ish tajribasi va boshqa mezonlari bo‘yicha Kuzatuv kengashiga mustaqil a’zo etib saylanish uchun qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bank Kuzatuv kengashi janob Zoltan Salayining nomzodini “Ipoteka-bank” ATB Kuzatuv kengashiga mustaqil a’zo sifatida saylash uchun ma’qulladi hamda uni “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi banki bilan kelishilgandan so'ng uch yil muddatga saylash to‘g‘risida Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga tavsiyanoma kiritdi.

Savol tasdiqlash uchun taqdim etiladi.